

MA'RIFATPARVARLIK VA JADID DAVRI ASARLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI (“QAROLAR FALSAFASI” VA “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARLARI MISOLIDA)

Ochilova Sarvinoz Husan qizi,

ToshDO‘TAU, O‘FF,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’rifatparvarlar va jadidlar davri adabiyot namunalari bo‘lgan Anbar Otin qalamiga mansub “Qarolar falsafasi” asari hamda Abdulla Avloniy ijod namunasi bo‘lgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarining leksik jihatlari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *ma’rifatparvarlar, jadidlar, Anbar Otin, Abdulla Avloniy, “Qarolar falsafasi”, “Turkiy guliston yoxud axloq”.*

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib o‘zbek xalqi hayotida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, Markaziy Osiyo chorizm tomonidan bosib olindi. Buning natijasi tilimiz, dinimiz, milliy madaniyatimiz salbiy o‘zgarishlarga yuz tutdi. Bu davrdagi xalqni uyg‘otish, birlikka chaqirish, ilmli bo‘lishga targ‘ib qiluvchi kishilar **ma’rifatparvarlar** deb ataladi. Milliy harakatlarini g‘oyaviy-ma’rifiy tayyorlab bergan va ularni ruhlantirib turgan ma’rifatparvarlar orasida Zavqiy, Muqumiy, Furqat, Avaz O‘tar o‘g‘li, Ahmad Donish, Karimbek Kamiy, Is‘hoqxonto‘ra Ibrat va ayollardan Anbar otin Farmonqul qizi kabilar e’tiborga loyiq.

Ma’lumki, O‘zbek millati shakllanganiga qadar o‘zbek tili urug‘ va elat tili tarzida yashab, rivojlanib kelgan. Ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelishi bilan bir vaqtda millatlar ham tashkil topa boshlaydi. Millatlarning tashkil topishida asosiy omil milliy tildir. Ma’rifatparvarlar davridan keyin, ya’ni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududida ziyolilar o‘rtasida milliy o‘zlikni anglash hissi kuchaydi. Bu davrdagi ziyoli, millat uchun o‘zlarini baxshida etgan kishilar **jadidlar** deb yuritiladi. Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo‘li ma’rifat ekanligini his qilib, avvalo, yangi tipdagi maktablar ochish, zamonaviy oliy maktablar tashkil etish, dunyoda bo‘layotgan ishlardan xalqni xabardor qilish, matbuotni rivojlantirish, san’atni rivojlantirish, mamlakatdagi iqtidorli yoshlarni Ovro‘pa o‘quv yurtlariga yuborish asnosida milliy ongini shakllantirishga, xalq orasida avj urgan illatlarni fosh etish maqsadida teatrlar tashkil qilishga urindilar. qisqa muddat ichida yangi tipdagi maktablar uchun darsliklar yozishga kirishildi va bunday maktablarda darslar ona tilida olib borildi. Shuni aytib o‘tish lozimki, bundan keyin darsliklarni qaysi tilda bo‘lishi ko‘pchilik orasida muzokaralarga sabab bo‘ldi. Xususan, bir guruh jadidlar darsliklarning usmonli

turkchada bo‘lishi taklifi bilan chiqdilar. Bu haqida Fitrat quydagilarni yozadi: “...Mana shunday kulinch bir holda qolgan burungi ziyolilarimiz: “tilimiz ilmiy, adabiy bir til emas ekan” degan kulinch bir qarashga keldilar. Mana shuning bilan maktablarimiz, yozuvlarimiz usmonlicha ta’siri ostida qoldilar. Toshkentda ochilgan kurslarda ona tili saboqlari uchun berilgan soatlarning ko‘prog‘i usmonlichaga berildi. Samarqandda ochilgan birinchi muallimlar kursiga esa ona tili degan narsa kiritilmadi. 1918-yildagi Maorif sho‘rosining bir majlisida ham o‘tgan yildagi muallimlarning qurultoyida shunday bir qaror berilgan edi: “Maktablarimizning ibtidoiy uch yilida ona tili o‘zbekcha o‘qitulsin, ondan so‘ng adabiy umumiy turk tili o‘qitulsin!” Bunlarning adabiy umumiy turk tili deganlari arabcha qatnashgan usmonlicha edi”. Bu holat tabiiy ravishda jadidchilikning boshqa vakillari o‘rtasida e’tiroz tug‘dirdi.

Bu ikki davrda yaratilgan asarlar tilida ham bir qancha tafovutlarni uchratish mumkin. Quyida ma’rifatparvarlar davriga mansub, Anbar Otin muallifligidagi “Qarolar falsafasi” hamda jadidlar davriga mansub Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlari fonetik va morfologik jihatdan tahlil qilinadi.

“Qarolar falsafasi”. 1870-yilda Qo‘qonda tavallud topgan o‘zbek shoirasi Anbar otin she’rlar yozish bilan birga mahallasidagi xotin-qizlarga ta’lim tarbiya bergan. Tojik va o‘zbek tillarida ijod qilgan. Zamondoshlari Zavqiy, Muqumiy, Furqatlar bilan nafaqat tanish bo‘lgan, balki she’rlarida ularga murojaat qilgan, bahslashgan ham. O‘zbekcha she’rlaridan devon tuzgan. Devonida 41 g‘azal, 4 muxammas, 1 qit‘a, 1 masnaviy, 1 mustazod o‘rin olgan 70-yillarning boshida shoiraning 40 ga yaqin she’rdan iborat yana bir qo‘lyozma devoni, “Qarolar falsafasi” risolasi, 160 mis-ralik “yakka bayt”lari topildi, tojikcha g‘azallaridan devon tuzish niyati bo‘lgan, ammo bor-yo‘qligi hozirda noma’lum. She’rlari aksariyat ijtimoiy mavzuda. Zamona adolatsizligidan, mehnatchi xalqog‘ir ahvolidan so‘z ochadi, ma’rifatni ulug‘laydi. “Qarolar falsafasi” asarida ayollarning og‘ir qismati haqida hikoya qilinadi. Anbar otin Farmonqul qizi asarlari qo‘lyozmasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi (inv. № 1647).

“Qarolar falsafasi” ning leksik tahlili.

Arabcha so‘zlar: *Siyrat, husn, fasohat, nur, olam, shu’la, muqaddam, ma’dan, zulm, la’l, ma’lum, muoyina, tafakkur, ma’rifat kabi so‘zlar kelgan.*

Qarolar bordurlarki, alar o‘zlari qaro bo‘lg‘onlari holda ma’rifat nuri siyratlarida to‘ladur va ul nurlarni fasohat va til durdonalari vositasi ila olamg‘a oq shu’la socharlar.

Forscha so‘zlar: *Oftob, giriftor, charog‘, kulba, go‘zal, do‘st, po‘lod, po‘st, rang, xushro‘y, dard, baland.*

Ul qaro oftob so‘zonida mehnat qilib, o‘zlari har qancha kuyganlari holda hosillarini hamtovoqlariga tuhfa qilurlar.

Antroponimlar: Ayol, ono, bola, Aflotun, Arastu, Laqumojis, Doniyol, Ilyos, Luqmon, Bedil, Jomiy, Sulaymon, Sa'diy, Navoiy.

Ul ono shundog' onodur va mohir donodirki, Aflotun va Arastuni, Laqumojis va Doniyolni, Xizr ila Ilyosni, Iskandaru Daroni, Luqmon va Sulaymonni, Abu Ali ibn Sino va Ulug'bekni, Jomiyni, Sa'diyni, Navoiyni, Firdavsiyni, Bedil va Xayyomni, Nodira va Uvaysiyni, meni va seni o'z qornida o'n oy ko'tarib, turli ofatlardan saqlab, yegan g'izosidan rasamat berib, to'qson to'qquz to'lg'oq dardini tortub tug'ub, hanuz ko'z ochishg'a majolimiz va sut emmoqqa kamolimiz bo'lmag'on murg'ak va g'ilmak holimizda ko'zimizni ochib, olamni ko'rish va sut emish qobiliyatg'a davvoru mohir qilubdur.

Inson ta'na a'zolari: Qosh, yuz, lab, ko'z, bosh, peshona, burun.

Ayollar boshini ikki qismg'a ajratib, peшонadan, ya'ni burni ustidan ayriliq yol tushar, shul farq deyilur.

Ammo bu hamma soxta pardoqlar befoydadur va ul qonsiz yuzlarga va lablarga qizil surtkoni ilan go'zallar labi la'lig'a monand bo'lmaydi.

Mavhum tushunchalar: Mehr, g'ayrat, shijoat

Qaro odamlarda g'ayrat, shijoat ziyoda bo'lub, quvvatlarini mehnat vositasi ila xaloyiq manfaatig'a sarf eturlar.

Dunyo tomonlari: Mag'rib, mashriq, janub.

Mag'rib taraflardan oq tanlar janub va mashriq xalqig'a haqir nazar tashlab, alarg'a jabrni loyiq ko'rub nohaq zulm qilurlar.

Antonim: Oq-qaro, o'ng-chap,

Sinonim. Oraz, yuz.

Sening bu orazing uzra qaroliklar jilo bersa.

Qavm-qarindoshlik: Ono, bola, chaqaloq.

O'shal ono o'zi o'rgatgan harakatlar chaqaloqdin voqe' bo'lganda, kamoli xushnudlikdan boz bolani qaynoq va yumshoq ko'ksiga bosub, hidlab, bo'salar qilur.

Inson qo'li bilan yaratilgan narsa-predmetning nomlari: Igna, ip.

Ba'zi birlari ignaga ip o'tkarub, ipni qaro qo'yurlar, yuzlarini igna ilan tikib, xol qilurlar.

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asari fonetik xususiyatlari

Tovush tushishi: o'rnida (o'rin+I+da), o'g'li (o'g'il+i)

Tovush almashishi: yaxshiligini (yaxshi+lik+i+ni)

Tovush ortishi: bunday (bu+n+day), uyasinda (uya+si+ n+ d), o'ldug'unindan (o'l+du+g'un+i+n+dan)

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asari leksik xususiyati

Arabcha: Axloq, ilm, xulq, kitob, sa'y, me'zon, mo'min, murakkab, nafs, surat, qobil, maqbul, shariat, imon, inson, akbar, zolim.

Buzulsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim.

Inson javhari qobildur.

Forscha: Ko 'shish, jasad, gung, kasud, sud, marg, nodon, yaksar, kasal, panja, payvand.

Lekin xulqimizning yaxshi bo 'lishining asosiy **panjasi** tarbiyadur.

Xudoning rahmat-u fayzi hama insonga **yaksardur.**

Toponim: Tog', daryo.

Inson tana a'zolari: Yuz, ko 'z, quloq, tan, yurak, qo 'l.

Mana, bu so 'zlar kishining **yuragini** ezar.

Ijtimoiy mansab va lavozim nomlari: Temirchi, muallim, mudarris, tabib, do 'xtir.

Ey otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz.

Temurchining bolasi tarbiyat topsa, bo 'lur olim.

Mavhum tushunchalar: Idrok, yaxshilik, yomonlik, aql, nafs, jannat, ruzvon.

Gar desam bo 'lmas xato **jannat** makoni tarbiyat.

Antonim: Yaxshil-yomon, kecha-kunduz, oq-qora, foyda-zarar.

Insonlarni **yaxshilikka** chaqiruvchi, **yomonlikdan** qaytaruvchi bir ilmdur.

Sinonim: Alloh, Janobi Haq; tan, badan, vujud, jism; dunyo, olam.

Jism ila ruh ikkisi bir choponning o 'ng ila tersi kabidur.

Zoonim: It, ot, qush.

Yurudi Kahf **iti** xublar-la bo 'ldi **oti** inson.

Qavm-qarindoshlik: Ota, ona, bola.

Otasiga nima dersiz, desak, qaysi **ota?** To 'ychi, uloqchi, bazmchi, do 'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko 'zlari qiymagan, zamondan xabarsiz **otalarni** aytursizmi?

Inson qo 'li bilan yaratilgan narsa-predmet nomlari: Ipak, ip, chopon, pul.

Ipak o 'lmas **ip** rangi alvon ila.

Fasllar: Yoz, qish

Gunahdin saqla jisming **yoz-u qishdur.**

Xulosa qilib aytadigan bo 'lsak, yuqorida keltirilgan har ikkala asarda ham turkiy tildan tashqari, arabcha va fors-tojikcha so 'zlar ham katta qismni tashkil etadi. Bu esa ijodkorlar davrida tilda o 'z qatlam so 'zlaridan tashqari o 'zlashma qatlam so 'zlari ham asarlarda keng qo 'llanilganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. – Toshkent : Nodirabegim, 2021
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Anbar_otin_Farmonqul_qizi
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Avloniy
4. www.ziyouz.com/turkiy_Guliston_yoxud_axloq
5. Анбар отин. Шеърлар, рисола. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970